

O'SMIRLARNING MUSTAQIL QAROR QABUL QILISH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH

Maksadova Mexriniso Sayxonovna

Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti

Tarix kafedrası dotsenti

Berdiyorova Gulzoda Maxmud qizi

Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti

Psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smirlarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish jarayonida ota-onalar va pedagoglarning roli tahlil qilinadi. O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, mustaqillikka intilish, do'st tanlashdagi xatolar, motivatsiya jarayonlari va o'qituvchi–o'quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan muammolar yoritiladi. Shuningdek, o'smirlarning noto'g'ri xatti-harakatlariga to'g'ri yondashuv, mehr, e'tibor va chegaralar qo'yishning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada ota-onaning shaxsiy namunasi, sog'lom muloqot va tarbiyadagi sabr-toqatning o'smir rivojiga ta'siri ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *o'smirlik, mustaqil qaror, ota-ona munosabati, motivatsiya, do'st tanlash, psixologik rivojlanish, tarbiya, xulq-atvor.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль родителей и педагогов в развитии у подростков способности принимать самостоятельные решения. Анализируются психологические особенности подросткового возраста, стремление к независимости, ошибки в выборе друзей, процессы мотивации, а также проблемы, возникающие во взаимоотношениях между учеником и учителем. Подчеркивается важность правильного подхода к неправильному поведению подростков, необходимости внимания, любви и установления границ. Также раскрывается влияние личного примера родителей, здоровой коммуникации и терпения на развитие личности подростка.*

Ключевые слова: *подросток, самостоятельное решение, взаимоотношения родителей и детей, мотивация, выбор друзей, психологическое развитие, воспитание, поведение.*

Abstract. *This article examines the role of parents and educators in developing adolescents' ability to make independent decisions. It analyzes the psychological characteristics of adolescence, the desire for autonomy, possible mistakes in choosing friends, motivational processes, and conflicts that may arise in student–teacher relationships. The importance of proper responses to problematic behaviors, providing affection, attention, and setting boundaries is emphasized. The article also highlights how parental role modeling, healthy communication, and patience positively influence adolescents' personal development.*

Keywords: *adolescence, independent decision-making, parent–child relationship, motivation, peer choice, psychological development, upbringing, behavior.*

O'smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Bu yoshda farzandlar o'z fikrini eng to'g'ri deb hisoblashadi. Ota-onalar ham kichkintoy deb hisoblab yurgan bolasining endi o'z fikrini, o'z qarashlarini ayon qilishlarini qabul qilishlari qiyin bo'ladi. Ayniqsa, faqat bolasining g'amida yashaydigan onalarda bu jarayon qiyin kechadi. Bunda ular o'zlarini xuddi endi bolasiga keraksiz bo'lib qolgan day his qilishlari mumkin. Bolalar ham o'zlarini aqlan katta bo'lganday his qilishsa-da, moddiy va jismoniy jihatdan ota-onaga tobe bo'lib qolaveradi. Barcha tushunmovchiliklar shundan kelib chiqadi. O'smir bolalar uchun o'zidan boshqa hamma nohaq. Agar ota-onasi tomonidan uning fikri rad etilsa, bola bu fikrda yanayam qat'iylashadi.

Bunday vaziyatda ota-onalar uning fikrini hurmat qilishlarini sezdirishlari va shuning barobarida o'ylagan qarorlarining natijasi haqida maslahatlashishlari kerak bo'ladi. Bunda bolaga savollar berish orqali uni o'ylashga undab, to'g'ri qaror chiqarish imkoniyatini berish lozim. Har bir ota-ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni istaydi. Ammo o'smir yoshda bola o'qishi, maktabi, baholari bilan bog'liq qarorlar qilishi va shu qarorlarining natijasiga javob berishni o'rganadi. Shu joyda ularga erkinlik berilmasa, katta hayotda ham doimo ularni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi. O'smir noqobil do'st tanlasa... Bola do'stga muhtoj. Bolani uyga qamash yoki kim bilandir do'stlashishini taqiqlash unda yanada katta qarshilik uyg'otadi. Farzandi noqobil do'st tanlagan ota-ona unga shunday boshqa bir jamoani yoki do'stni taklif qilishi mumkin. Masalan, bolaning birga o'ynaydigan do'stlarini ota-onasi yoqtirmaydi. Uni o'sha noqobil boladan ayirish uchun, farzandingiz u bilan vaqt o'tkazadigan paytni mo'ljallab boshqa bir davrani – sport to'garagi, qo'shimcha mashg'ulot kabilarni taklif qilishi kerak. Bunda majburlash yaramaydi, tanlash imkoniyatini berish kerak – shunda bola o'zi tanlov qilganday his qilishiga erishish mumkin. Har doim tarbiyada xotirjam ish tutish kerak, shoshilmaslik kerak. Chunki bola hali o'zini qidiraypti – unga o'zligini topishiga imkon bergan ma'qul. Agar maktabdagi do'sti ota-onaga yoqmasa, darsdan keyin maktabda ko'p ham ushlanib qolmasligiga erishish kerak. Ammo o'smir yoshda bolaning maktabini o'zgartirish yaxshi emas, o'smirlar yangi muhitga moslashguncha juda qiynaladi. Bolaga motivasiya berish uchun... ota-ona hamma narsani muhayyo qilishi bolada hech narsaga intilmaslikni keltirib chiqaradi. Barcha muammolarini ota-onasi hal qilib berishi – kelajakda uning hayotini ham ular boshqarishiga zamin yaratadi. Oqibatda ular kelgusida boshqalarning xohishlari bilan yashashga o'rganib qolib, qachondir afsuslanishadi. Shuning uchun o'smirlarda kelajak haqida o'ylash, to'g'ri qaror qabul qilish uchun imkon va tushuncha berishda yordam ko'rsatish kerak. «Sen kelajakda nima qilmoqchisan? Kim bo'lmoqchisan?» kabi savollar bolani o'ylashga majbur qiladi. Birdaniga javob bermasligi mumkin, ammo vaqt o'tib bu haqda o'ylab ko'radi. Ularga o'zi yoqtirgan biror mashhur shaxslarni namuna qilib ko'rsatish ham unga motivasiya berishi mumkin. Aslida ota-ona bolaga hamma narsani yaratib bermasligi, u nimagadir intilishi,

orzu qilishi uchun imkon qoldirishi kerak. Nimagadir o'z mehnati bilan erishsa, u uchun qadrli bo'ladi. Jinoyatga moyil yoki xato qilgan bolalarni to'g'ri yo'lga solish mumkin! Yoshligida yetarlicha mehr ko'rmagan bolalar o'smirlikda jinoyat qilishga ko'proq moyil bo'lishadi. Ular buni xohlashmasa ham, o'zlari sezmaganda ota-onalari, atrofdagilar va umuman dunyo bilan o'chakishib jinoyat qiladi. Bunday holatlarda psixologlar bilan ishlash yordam berishi mumkin. Bunday vaziyatda ota-onalar bolaga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lishlari to'g'ri bo'lmaydi, chunki boladagi bu yaralar ularning xatosi tufayli yuzaga kelgan. Bolangiz o'qituvchisidan shikoyat qilganda... Ota-ona farzandi oldida uning o'qituvchisi haqida hurmat bilan gapirishi lozim. Bu bilan bolada ustoziga nisbatan hurmat paydo bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida nizoli vaziyat kelib chiqqanda bolaning his-tuyg'ularini ham eshitish, uni doim tushunishlarini anglatish yaxshi samara beradi. So'nggi paytlarda shunday vaziyat yuzaga kelganda borib o'qituvchini urib kelayotgan ota-onalar ko'paydi. Bunda ular yutqazadi, bu holat oqibatida sinfdoshlarida bolaga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishi, bola bundan keyin ham o'z munosabatlarini shunday hal qilishga o'rganishi mumkin. Bu bilan ular farzandiga juda yomon namuna ko'rsatishadi. Shunday tushunmovchilik holati sodir bo'lganda o'qituvchi bilan vazmin gaplashish va farzandining ruhiyati haqida tushuntirish, uning sinfdagi obro'sini tiklash, o'ziga ishonchini orttirish uchun maslahatlashish kerak bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni yaxshilash uchun bolani o'sha o'qituvchiga qo'shimcha darslarga berish ham yaxshi natija berishi mumkin. Bu bilan bola yoqtirmagan odamlari bilan ham munosabat qurish mumkinligi, hamma narsaga imkon topish mumkinligini anglaydi.

Bola - kichkina odamgina emas, alohida shaxs hamdir. Shuning uchun uni izzat qilish, muloqot mobaynida hurmatni izhor etib turish zarur. Siz ota yoki ona sifatida shaxsiy namunangiz yordamida boshqa insonlar bilan muloqot qilishni o'rgating. Samimiyatsiz insoniy munosabat o'rnatib bo'lmaydi. Bu yerda nazorat haqida gap ketmayapti. Bolalarni nazorat qilish, ayniqsa, kichik yoshdagilarini cho'chitib qo'yadi. Siz faqat qo'rqitish yordamida "o'zingni yaxshi tut", desangiz u bu nega zarurligini tushunmaydi. Bundan tashqari, katta bo'lganida bola sizdan qo'rqadigan bo'ladi. Bolaga simpatiya (xush ko'rish) bilan munosabatda bo'ling. Bolalar ota-onalari ularni yaxshi ko'rishiga qattiq ishonishadi. Bu tug'ma hissiyot. Hatto bolaga yetarli e'tibor qaratilmagan yoki ularni jazolagan paytda ham ular ota-onasining mehr-muhabbatiga ishonishadi. Biroq yoqimlilik, xush ko'rish bilan gapirish, mehr ko'rsatish umuman boshqa narsa. Ko'plab bolalar sovuq va loqayd munosabatni darrov payqab qolishadi. Ota-onalik muhabbati tabiiy hissiyot, instinktdir. Unga simpatiyani uyg'unlashtirsangiz, bola tarbiyasidagi katta yutuqni qo'lga kiritasiz. Bolalarga juda ko'p e'tibor zarur. Barcha bolalarga e'tibor kerak. E'tibor esa hech qachon ko'plik qilmaydi. Farzandlar ikki nafar bo'lsa, ular barcha e'tiborni o'zlariga qaratish uchun inijlik qilishadi. Ha, go'daklar e'tiborni qozonish uchun barcha imkoniyatdan foydalanishadi. Bu holat bolalarda instinktiv mavjud. Ota-onaning ko'z-quloq bo'lib turishi ular uchun xavfsizlikni anglatadi. Yaxshisini oshirib, yomonini yashiring. Mazkur qoida birinchi qarashdayoq tushunarli. Ularning yaxshi harakatlariga e'tibor qarating. Agar bola

nimanidir noto'g'ri qilayotgan bo'lsa, bunga ahamiyat bermang. Yaxshi tomonga e'tibor qaratish bola o'zini yaxshi tutishiga sabab bo'ladi. Yomon qiliqlariga e'tibor bermay qo'yishingiz bilan fanzandingizning o'zi injiqlik qilishni bas qiladi. Bolalarga chegara qo'ying. Bolalarni chegaralanmaslikning sabablari ko'p. Ular olamni mustaqil anglashlari lozimku, axir. Biroq bolalarni yolqovlikdan cheklamasangiz, tarbiyani o'zi bo'larchilikka tashlab qo'ygan bo'lasiz. Ularni chegarasiz, hech qanday qoidalarsiz tarbiyalab bo'lmaydi. Bola biror cheklovga duch kelmagunicha harakatlanaveradi. Sababi nimaningdir mumkin emasligi tushunchasi ularning tabiatida mavjud emas. Ergashtiruvchi bo'lishga harakat qiling. Ota-ona bo'lish og'ir mas'uliyat. Shaxsiy namuna ko'rsatish ham qiyin. Shunday bo'lsa-da fanzandingiz qanday bo'lishini istasangiz, o'zingiz ham shunday bo'lishga majbursiz. Yomon fe'l-atvorini kechirmang. Agar bola ota-onasini haqorat qilsa, ranjitsa, jazavasi tutib qolsa buni kechirish kerak emas. Ha, bola doimo o'zini ideal darajada tutmasligi mumkin.

Bolalarda vaqti-vaqti bilan yomon fe'l-atvor kuzatilib turadi. Ammo bu holatga qo'l siltab qo'yib bo'lmaydi. Aks holda, ahvol bundan ham yomonlashadi. Yomon xulq bilan kurashish zarur. Reja tuzing. Farzandingiz serxarxasha va tantiq bo'lsa, avvalo, reja tuzib oling. Albatta, bu rejada grafiklar chizishingiz shart emas yoki maqsad va vazifalarni batafsil boshidan oxirigacha ifodalashingiz zarur emas. Har kunlik hisobotlar ham bu o'rindan joy olmaydi. Shunday bo'lsa-da, reja zarur. U sizga bolaning fe'l-atvori ustida ishlashingizda asqotadi. Go'dakning bitta muammoli fe'li yoki qilig'ini yozing va u bilan kurashish uchun har xil g'oyalar o'ylab toping. Istalgan xulq – bu muloqot. Eng yomon atvor ham bu bolaning ota-onasi bilan bo'lgan muloqotidir. Agar u qandaydir nojo'ya harakat qilayotgan bo'lsa, go'dak ota-onasiga nimanidir aytgisi kelayapti. Masalan, e'tiborsizlikdan aziyat chekayapti. Ular fikr va hislarini harakatlar yordamida ifodalaydi. Bola o'z tantiliklari bilan nimani tushuntirmoqchi ekanligini bilish bu yarim muvaffaqiyat kalitidir. Bolalar – bu xaos (tartibsiz, chalkash)dir, ular bilan urushish foydasiz. Bolalar ota-onasining hayotiga doimo xaos olib kirganligini ta'kidlab aytamiz, doimo. Bola tug'ilishi bilan minglab kutilmagan, kechiktirib bo'lmas ishlar paydo bo'ladi. Buni tushunish va mazkur holatga ko'nikish zarur. Farzandingiz oldin xafa bo'lishi, keyin sho'xlik qilishi, saldan so'ngesa siz bilan tortishishi, bahslashishi mumkin. Barchasiga sabrli bo'lish zarur. Xalq hikmatlarida aytilganidek, dovuldan keyin baribir quyosh chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. G'oziyev.E. Ontogenez psixologiyasi.Toshkent, Noshir., T 2010
2. Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullaeva , M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiyasi” Toshkent – 2018
3. Davletshin M.G. va boshqalar «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» T. TDPU, 2004yil.

4. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR, 1(2), 52-58.
5. Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li. "YOSHLARNING IJTIMOYILASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI." Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari 5.2 (2025): 27-31.
6. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR, 1(2), 52-58.
7. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR 1.2 (2024): 48-51.
8. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 1285-1287.
9. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOYILASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI." ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION 1.2 (2024): 83-88.
10. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOY FUNKSIYASI." TAMADDUN NURI JURNALI 1.64 (2025): 253-255.
11. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." Философия и право 26.3 (2023): 232-235.
12. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." Farg'ona davlat universiteti,(3) (2023): 67-67.
13. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJI VA OGOHLIK TUSHUNCHASI MAZMUN-MOHIYATI." CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES. Vol. 1. No. 7. 2026.
14. Nomozov Xurshid. "AXBOROT JAMIYATI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI;(FALSAFIY TAHLIL QILISH)." CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES. Vol. 1. No. 7. 2026.
15. Ruziboev Dilshod A'Zam. "TOURISM POWER OF UZBEKISTAN." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.5 (2021): 215-222.
16. Ro'ziboyev, Dilshod. "QASHQADARYO VOHASIDA QORAKO 'LCHILIKKA BO 'LGAN E'TIBOR." TAMADDUN NURI JURNALI 9.60 (2024).
17. Ro'Ziboyev, Dilshod A'Zam O. "QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIKNING IQTISODIY HAYOTDAGI O 'RNI VA SOVET

HOKIMIYATINING CHORVA OZUQASI SIYOSATI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.11 (2022): 1008-1016.

18. Рўзибоев, Дилшод Абзам Ўғли. "XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.3 (2022): 943-952.

19. Ruziboev Dilshod A'Zam. "TOURISM POWER OF UZBEKISTAN." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.5 (2021): 215-222.

20. Niyazov Sobirjon. "EKOESTETIK TAFAKKURNING GNOSEOLOGIK JIHATI VA PRAKSIOLOGIK QIYMATI." SHOKH LIBRARY (2025).

21. Niyazov Sobirjon. "EKOESTETIK TAFAKKURNING NAZARIY JIHATLARI VA PRAKSIOLOGIK AHAMIYATI." TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI 1.5 (2025): 140-146.

22. Ниёзов, С. С. "Перспективы развития экотуризма в Узбекистане." Актуальные вопросы гуманитарных наук: теория, методика, практика. 2022.

23. Максадова, Мехринисо Сайхановна. "ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ МОЛОДОГО ПЕДАГОГА." Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 5 (2018): 43-44.

24. Sayxonovna, Maksadova Mekhriniso. "PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN PRIMARY SCHOOL TEACHER PROFESSIONAL TRAINING." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071 11.04 (2022): 15-20.

25. Sayxonovna, M. M. (2022). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN PRIMARY SCHOOL TEACHER PROFESSIONAL TRAINING. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 11(04), 15-20.

26. Maksadova, Mehriniso. "INTEGRATION OF YOUNG TEACHERS INTO THE PROFESSIONAL ENVIRONMENT." International Journal of Artificial Intelligence 1.2 (2025): 1117-1121.

27. Максадова, Мехринисо Сайхановна. "ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ." Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 3 (2015): 105-108.

28. O'G'LI, ABDULLAYEV XURSHID MUXTOR, and KENJAYEV ZARMAMAT. "AXBOROTNING JAMIYATDAGI O 'RNI." Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari 5.2 (2025): 32-34.

29. Kenjaev, Zarmamat. "POLITICAL CULTURE: THE BASIS OF STATE STABILITY AND WELL-BEING OF CITIZENS." НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ: СОХРАНЯЯ ПРОШЛОЕ, СОЗДАЁМ БУДУЩЕЕ. 2021.

30. Kenjaev, Zarmamat Tuymurodovich. "The issue of the formation the political culture of young people in the context of pluralism." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 822-825.

31. Kenjaev, Z. T. (2021). The issue of the formation the political culture of young people in the context of pluralism. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 822-825.

32. Nurillayevich, Omonov Bahodir. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLARNING KUCHAYISHI VA UNGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI." *Conferences*. Vol. 1. No. 3. 2025.

33. Nurillaevich, Omonov Bakhodir. "MANIFESTATIONS OF THE ANCIENT ECOLOGICAL WORLDVIEW." *CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES*. Vol. 1. No. 6. 2025.

34. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ." *International Journal American Journal of Modern World Sciences* 2.11 (2025): 61-73.

35. OMONOV, Baxodir. "ETNIK NIZOLARNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI GEOSIYOSIY MUNOSABATLARIGA TA'SIRI." «*ACTA NUUZ*» 1.1.1 (2025): 164-166.